

Usmon Nosir she'rlarida tashxis san'ati.

Amirov Farrux

Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-bosqich talabasi

Anotatsiya: ushbu maqolada Usmon Nosir she'riyatida qo'llangan tashxis san'ati namunalari tahlil qilindi. Shoir lirikasidagi badiiy tasvir, ruhiyat ifodasi hamda so'z qo'llash mahorati tilga olindi.

Kalit so'z va iboralar: she'riy san'atlar, tashxis san'ati, lirika, obraz, poema, timsol, ramz, sonnet, tabiat tasviri, doston.

Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalananishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan. Xususan, tashxis san'ati ham nazmning ajralmas qismi bo'lib, ruhiy kechinmalar va tasviriy ifoda qurilishida yetakchilik kasb etadi.

XX asr o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Usmon Nosir she'rlarida tashxis san'atining ko'pgina nodir na'munalarini ko'rishimiz mumkin. Shoir lirikasing tabiat bilan chambarchasligi satrlarida tashxis san'atidan keng foydalanishni taqazzo qilgan. Uslub jihatdan ham obrazlilik hamda timsollarning ko'pligi jonlilik va jozibadorlikni talab qilgan.

Tashxis(jonlantirish) hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chirish va shu orqali badiiy asar g'oyasini aniq va go'zal tarzda yetkazib berish san'atidir. Hayvonlar, qushlar hamda o'simliklar inson fe'l-atvorini, albatta, ma'lum o'xshashliklar asosida qabul qiladi. Bu esa ramziy ma'noni vujudga keltiradi.

Tabiat tasviridagi tashxis muayyan manzaraning holatini aks ettiruvchi aniq badiiy chizgilarga va o'xshatmalarga asoslanadi. Usmon Nosirning quyidagi satrlariga e'tibor qaratamiz:

Shu kechada
Bodom guli
Rangga kirganda,
Oyning nuri
Yayov yurib erkin kulganda.

VOLUME-2, ISSUE-9

“Bodom gullagan kechasi” she’ridagi oy nurining yayov yurib kelishi va kulishi insonga xos xususiyatdir. Ma’lum hodisaning ushbu tarzda jonlantirilishi she’rxonga estetik zavq va go‘zallikni his etish tuyg‘usini bag‘ishlaydi.

Xuddi shunday tashxislarni “Korab” she’rida ham uchratamiz:

Oqshom tushdi, tog‘ni tuman bosdi,
Yulduz bilan to‘ldi dengiz osti.
O‘ynaydi shamol,
Uxlaydi shimol...

Bu yerda tashxis san’ati shamolning o‘ynashi va uqlashida ko‘rinadi. Satrlardagi soddalik va aniqlik shamol yelib turgan oqshomni tasavvur qilishga yordam beradi.

Ko‘chalarda quyosh bayram etar,
Yel orkestr o‘ynaydi xursand.
Bilasanmi, bu to‘p qayga ketar?
Qolma! Orqasidan yugur san!

Satrlarida ko‘rishimiz mumkinki, quyosh va yel obrazining kayfiyati o‘zgacha maxorat bilan inson xarakteri o‘xshashliklari asosida jonlantirilgan. Bayram qilish, orkestr o‘ynash xususiyatlari jonsiz narsalarga xos emas. Ammo ularni yuksak iste’dod bilan tabiatga xoslantirishni Usmon Nosir she’rlarida juda ko‘p bor uchratish mumkin.

Xususan, Usmon Nosirning mashhur “Yana she’rimga” sonetida ham tashxis san’ati yuqori did bilan qo‘llangan:

She’rim! Yana o‘zing yaxshisan,
Boqqa kirsang, gullar sharmanda,
Bir men emas, hayot shaxsisan,
Jonim kabi yashaysan tanda.

Shoirning o‘z she’riga murojaati va e’tirofi zamirida tuyg‘ular silsilasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. She’rning boqqa kirishi, gullarning esa huddi shaxsdek sharmandalik hissini tuyishi go‘zal tashxis namunalaridandir.

Badiiy ijodda insonga xos xususiyatlar faqatgina hayvonlar, qushlar, aniq narsalargagina emas, mavxumiyl tushunchalarga ham ko‘chiriladi. Bu holatga Usmon Nosirning “Monolog” she’rida guvoh bo‘lamiz:

Sevgi! Sening shirin tilingdan
Kim o'pmagan, kim tishlamagan?
Darding yoyday tilib ko'ksidan,
Kim qalbidan qonlar to'kmagan?

Tashxis badiiy san'ati nafaqat Usmon Nosir she'rлarida balki uning poemalarida ham keng qo'llangan. Chunonchi, "Norbo'ta" dostonida quyidagi satrlar mavjud:

Qish. Izg'iriq yelar beqaror,
Tunning sochi to'zigan, besar.
Tuynukdan qiya qaragan oy
Uzun shokila shu'la to'kar –

Hech zamonda tunnig sochi bo'lganmi? Bunday tasvir Usmon Nosirning yetuk saviyali ijodkor ekanini ko'rsatdi. Ushbu misrada oyning tuynukdan qarayotgan tasvirini ham ko'rshimiz mumkin.

"Norbo'ta" dostoni singari "Naxshon" dostonida ham yetarlicha tashxis san'ati qo'llangan. Masalan:

Bog'larga namozgor
Salqini tushdi,
Gullar nam bargini
Qayirdi asta.
Oftob ham suv ichar
Tog'ladan pastda,
Loladek qip qizil
O't shapaq o'chdi.

Misrasini olaylik. Oftobning tog'lardan pastda suv ichishi ajoyib badiiy topilma bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Tasvirning go'zal va jonli chiqishida tashxis san'atining yetakchiligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tashxis san'ati tashbeh, xususan, husni ta'lil san'atiga ham asos vazifasini bajaradi.

So'z qo'llash va go'zallikni o'tli satrlar bilan bayon eta bilish qobiliyatি Usmon Nosir she'rлarining sevimli bo'lishiga sabablardan biridir. Undagi isyonkorlik, undagi jo'shqinlik har bir satridi olovday gurkirab turadi. Tabiat esa uning nigohlarida asarlar muqaddimasi o'laroq ko'rindi.

VOLUME-2, ISSUE-9

“Iste’dod shunday bir gavharki, u dengiz tubida, sadaf ichida ham – gavhar, iste’dod shunday bir zilol irmoqki, uning har qatrasida daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor, iste’dod shunday bir gulki, uning har bir ochilmagan g‘unchasida chamanlarning bo‘yi va tarovati bor. Usmon Nosir iste’dodi ana shunday gavhar, ana shunday irmoq, ana shunday g‘uncha edi” – deydi O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxatি:

1. Xurshid Serobov. Usmon Nosir.-T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2022. – B.25.
2. Usmon Nosir. Yur tog‘larga chiqaylik.-T.: O‘zbekiston LKSM Markaziy Komiteti “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1984. – B.29.
3. Usmon Nosir. Ertani sevinib kut!-T.: “Adabiyot” nashriyoti, 2021. – B.7.
4. Usmon Nosir. Ertani sevinib kut!-T.: “Adabiyot” nashriyoti, 2021. – B.26.
5. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar.-T.:O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. - B.54.
6. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar.-T.:O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. - B.81.
7. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar.-T.:O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. - B.104.
8. Anvar Hojiahmedov. She’r san’atlarini bilasizmi?-T. “Sharq” nashriyot – matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahriryati, 2001. – B.8.
9. Anvar Hojiahmedov. She’riy san’atlari va mumtoz qofiya.-T.: “Sharq” nashriyot – matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahriryati, 1998. – B.38.